



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Tagayev Ganisher Xasanovich

Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi o'qituvchisi

UZLUKSIZ TA'LIMDA MILLIY QADRIYATLARNING ETNOPEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada uzluksiz ta'lim tizimi jarayonida milliy qadriyatlardan foydalanishning etnopedagogik asoslari atroflicha tahlil etilgan. Shu bilan bir qatorda, milliy qadriyatlar shaxsning ijtimoiy taraqqiyotida nechog'lik zarurligi, milliy qadriyatlarning rivojlanish negizlari, ta'lim-tarbiya jarayonida yosh avlodda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirib borishda xalqimizning milliy qadriyat va an'analaridan unumli foydalanish kabi masalalar ham maqolada o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: Milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, milliy urf-odat va an'analar, og'zaki ijod namunalari, ota-onalar, bobo-buvilar o'giti, urf-odat va an'analardagi o'xshashlik.

Ta'lim tizimidagi zamonaviy islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda bozor iqtisodiyoti chuqur ildiz otib borayotgan davrda Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq bir qator yangi vazifalarni yuzaga keltiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hych qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"[1;14] deb, yoshlar siyosiy faolligini oshirishga da'vat etdilar.



Yurtimizda milliy tafakkur shakllanayotgan bir davrda yoshlarni ma'naviy-axloqiy hamda estetik qadriyatlar ruhida, ijtimoiy va ijodiy faol shaxs qilib tarbiyalashning falsafiy mohiyatini ochib berish asosiy maqsad qilib olindi. "Etnografik muhitda "Qadriyat" – voqyelikning turli ko'rinishlari, narsa, voqyea, hodasa, jarayon, tabiat va jamiyatga oid jihat, xususiyat va boshqalarning biror subyekt (shaxs, sinf, millat va boshqa) uchun ijtimoiy qadri va ahamiyatini anglatadigan falsafiy-aksiologik tushuncha" [4;50]. Qadriyatlarning esa moddiy, ma'naviy, umuminsoniy va milliy, diniy, ijtimoiy-siyosiy turlari mavjud. Ularning barchasi inson ehtiyojlari uchun zarur bo'lsa-da, milliy qadriyatlar ular ichida eng muhim o'rin tutadi.

Milliy qadriyatlar shaxsning ijtimoiy taraqqiyotida nechog'lik zarurligi, xalqimizda yuksak insonparvarlik qadriyatlari tiklanayotganligi va takomillashayotganligini ifodalovchi o'ziga xos dunyoqarashida ko'rishimiz mumkin.

Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasm-rusmlarga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo'ljallari, «zamon qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma'naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Yoshlarda milliy qadriyatlarning rivojlanish negizlari, qudrati va ahamiyati, ma'naviy-ahloqiy kamolot yo'llari, bu sohadagi vazifa va tadbirlar belgilangan, pedagogika fanining rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladigan milliy qadriyatlarning tamoyillari bayon etilgan.

Darhaqiqat, bugungi kunda faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, milliy qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning inson hamjamiyatida o'ziga munosib obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsni har tomonlama ma'naviy-ahloqiy shakllantirish, uning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish hamda ijtimoiy turmush uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish muhim ahamiyatga ega.

Shundan kelib chiqib quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

✓ Jamiyat hayoti va ta'lim sohasida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar yoshlarni milliy – ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojlarini aniqlash va uni qondirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

✓ Shu zarurat tufayli ham o'quvchilarning o'z-o'zlarini tarbiyalashlari, milliy-manaviy jihatdan takomil etib borishlari kabi masalalar pedagogik nuqtai nazardan alohida dolzarblik kasb etadi. Bunda badiiy adabiyot, tarix, milliy san'at va madaniyat namunalaridan foydalanishga ahamiyat berish lozim.

✓ Chunki, ma'naviy olamini boyitish, ularda mas'uliyat tuy g'usini kuchaytiradi va vatanparvallikka chorlaydi. Bular o'zini-o'zi anglash o'zligini ta'kidlash, o'zini tadbiiq qilishga bo'lgan kuchli intilishlar orqali nomoyon bo'ladi.

Asrlar davomida ajdodlardan-avlodlarga meros bo'lib qolayotgan an'ana va udum, qadriyat va marosimlarning har birida tarbiyaning o'ziga xos ko'inishi mavjud. Yosh avlodni ma'nun barkamol etib tarbiyalashda shubhasiz, milliy va



umuminsoniy qadriyatlarga asoslanish zarur. Buning uchun etnopedagogikadan foydalanamiz.

O'zbek xalqi pedagogikasi tarixida yosh avlodda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda ko'p asrlar davomida qo'llanilgan ko'plab usul va vositalar, milliy urf-odat va an'analar, tarbiya haqidagi g'oyalar mujassamdir. Xalq pedagogikasida ifodalangan g'oyalar, tajribalar halq yaratgan afsonalarda, og'zaki ijod namunalari, yozma yodgorliklarda o'z ifodasini topgan, ulug' mutafakkir olimlarning ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan asarlarida bayon etilgan.

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'zi xos urf-odati va ana'analari, tarbiya haqidagi g'oya va hayotiy tajribasi xalq pedagogikasida mujassamlashdi. Hali maktab bo'lmagan, pedagogik fikr tarkib topmagan davridayoq qabila a'zolarining bolalarda mehnatsevarlik, jangovorlik, axloq-odob, nafosat, do'stlik, mehr-shavqat, insorparvarlik sifatlarini tarkib toptirish sohasidagi aql-idroki va usullari o'sha davrdagi hayotiy tajribaning mevasi sifatida bizning davrgacha yetib keldi va xalq pedagogikasi sifatida shakllandi [3; 10-11].

Har bir xalq pedagogikasi boshqa xalqlar ma'naviy-madaniyati bilan o'zaro aloqada boyib boradi. Xalqlar hayotida urf-odat va an'analardagi o'xshashlik ular yaratgan yodgorliklar mavjuddir. Ammo, bundan qat'iy nazar, har bir yodgorlik uni yaratgan, ijod etgan xalqqa mansubdir, uning milliy yodgorligidir. Shu sababli ham xalq ijodiy asarlarida milliylik xususiyati namoyondir. Asarlar nomi, ularda tilga olingan hudud, buyum, o'simlik, qushlar, xayvonlar, turmushda qo'llangan asboblar nomi ham buning yorqin dalilidir.

Shaxsning ijtimoiy taraqqiyotida davomida etnik qadriyatlarni yoshlar ongiga samarali singdirishda etnopedagogika fani o'z oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi:

- xalqimizning milliy qadriyat va an'alarini oila muhitida tarkib toptirish, buning uchun esa ota-onalar, bobo-buvilarning farzandlar bilan bo'ladigan kundalik muloqot vaqtlarini ko'paytirishga e'tibor qaratish;

- ta'lim muassasalarida bilim va tarbiya uyg'unligiga erishish, pedagoglar va jamoatchilik tomonidan yoshlarning internet tizimidagi muloqotlari mazmunini jiddiy nazoratga olish, ularni vayronkor g'oyalarni targ'ib etuvchi xorijiy saytlar ta'siridan himoya qilish;

- ta'lim muassasalarida adabiyot, san'at, fan va madaniyat sohalarida o'tkazilayotgan ma'rifiy tadbirlarni miqdorini oshirish;

- milliylik va milliy ma'naviy qadriyatlar uyg'unligi mavzuida olimlar, yozuvchi va shoirlar bilan davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etib borish;

- oila, maktab va ta'lim muassasasi hamkorligidagi ishlar salmog'ini oshirishdan iborat hisoblanadi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarga asoslangan holda xulosa qilish mumkinki, vujudga kelgan zaruriyat asosida milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini qondirish jarayonida vujudga keladigan qarama-qarshilikni bartaraf etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan bir qatorda o'quvchilarda milliy-ma'naviy qadriyatlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish strategiyalarini aniqlash va ularni



amaliyotga tadbiiq etish vositalari, usul va metodlarini belgilab berish ham muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘uxati

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. //Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. -Тошкент: «Ўзбекистан». НМИУ, 2016. – Б.14.
2. Аширов А. Этнология. Ўқув қўлланма. -Т.: Янги нашр, 2014. – Б.6.
3. Зуннунов А. Ўзбек педагогикаси тарихи. -Тошкент.: Ўқитувчи, 1997. – Б.10-11.
4. Назаров Қ. Аксиология (Қадриятлар фалсафаси). Тажрибавий қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2011. – Б.50.